

# "O'zkimyosanoat" Ajda AQSHning "Honeywell UOP" kompaniyasi bilan ikki tomonlama muzokaralar bo'lib o'tdi

// 29.07.2022

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/uzkimyosanoat-ajda-aqshning-honeywell-uop-kompaniyasi-bilan-ikki-tomonlama-muzokaralar>



Joriy yilning 28-iyul kuni "O'zkimyosanoat" Ajda AQSHning "Honeywell UOP" kompaniyasi vakillari bilan samarali ishlab chiqarishni tashkil etishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va O'zbekiston Respublikasi hududida kimyo sanoati sohasida hamkorlikni yo'lga qo'yish yuzasidan ikki tomonlama muzokaralar o'tkazildi.

Uchrashuvda "O'zkimyosanoat" AJ tomonidan bugungi kunda yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan, jahon bozorida yuqori talabga ega kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish hamda MTP va MTO kabi yuqori samarali texnologiyalardan foydalanish bo'yicha qator investitsiya loyihalari ustida ish olib borilayotganligi alohida ta'kidlandi. Shuningdek, muzokaralar davomida yurtimiz kimyo korxonalarida ishlab chiqarish va energiya samaradorligini oshirish, qolaversa, atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish maqsadida ilg'or texnologik yechimlar, avtomatlashtirish va raqamli transformatsiyalarni joriy etish masalalari muhokama qilindi. "O'zkimyosanoat" Ajda avtomatlashtirish va raqamli transformatsiyalarni joriy etish bo'yicha ishlar boshlanib, bu borada loyiha ofisi ham tashkil etilgan bo'lib, "Honeywell UOP"

kompaniyasi mazkur loyiha ofisi bilan yaqindan hamkorlik qilishiga kelishib olindi.



O'z navbatida, uchrashuvda ishtirok etgan "Honeywell UOP" kompaniyasining yuqori o'sish sur'atlariga ega bo'lgan global mintaqalar bo'yicha prezidenti Driggs Benjamin loyihalarni MTO texnologiyasidan foydalangan holda amalga oshirish va dastlabki texnik-iqtisodiy asoslarni birgalikda tayyorlash, shu bilan birga, loyihani moliyalashtirish uchun xalqaro maslahatchilar hamda xorijiy moliya institutlari, jumladan, AQSH Eksport-import banki va boshqa kredit agentliklarini jalb qilish yuzasidan hamkorlikni yo'lga qo'yishga qiziqish bildirdi. Bundan tashqari, AQSH kompaniyasi mamlakatimiz kimyo sanoati korxonalarini mutaxassislar uchun qo'shma o'quv-seminarlar va treninglar tashkil etishga tayyor ekanligini ta'kidladi.



Muzokaralar yakunida tomonlar hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish, kimyo sanoatida MTP texnologiyasidan foydalangan holda mahsulotlar ishlab chiqarish loyihalari bo'yicha takliflar tayyorlash hamda texnik yechimlar ishlab chiqishga kelishib olishdi.

**"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati**